



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Davronov Pirnazar Ziyatovich , Umarov Sanjar Sunnatovich**

*Samarqand viloyati XTXQTMOHM professor – o'qituvchilari*

### UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TO'G'RIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Annotatsiya.** Maqolada, pedagoglar uzluksiz kasbiy rivojlanish izimining joriy etilishi, malaka oshirish shakllari, xodimning individual kasbiy revojlantirish trayektoriyasi, elektron portpoliyasi, troyiktoriyaning tarkibiy qismlari, uni tuzish algoritmi hamda uzluksiz kasbiy revojlantirishni ifodalovchi grafiklar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Pedagog, uzluksiz, kasb, trayektoriya, mazmun, korreksiya, refleksiv, tahlil, baho, elektron, platforma, portfoliyo, kridet, jilish, siljish, surilish, algoritm, tashxis, invariant, variativ, individual, dastur.

**Аннотация.** В статье представлены внедрение непрерывного профессионального развития педагогов, формы повышения квалификации, индивидуальная траектория профессионального развития работника, электронное портфолио, составляющие траектории, алгоритм ее построения и графики, отображающие непрерывное повышение квалификации.

**Ключевые слова.** Педагог, непрерывный, профессия, траектория, содержание, коррекция, рефлексивный, анализ, оценка, электронный, платформа, портфолио, кредит, смена, толчок, алгоритм, диагностика, инвариант, переменная, индивидуальная, приложение.

**Annotation.** The article presents the introduction of continuous professional development of teachers, forms of advanced training, an individual trajectory of the professional development of an employee, an electronic portfolio, components of the



*trajectory, an algorithm for its construction and graphs that display continuous professional development.*

**Keywords.** *Educator, continuous, profession, trajectory, content, correction, reflective, analysis, assessment, electronic, platform, portfolio, credit, shift, push, algorithm, diagnostics, invariant, variable, individual, application.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №25-son qarorlarida pedagog xodimlarning yangi malaka oshirish tizimi joriy qilindi.

Ilgari maktab o‘qituvchilari har 5 yilda bir marta, bir oyda, 144 soat mobaynida malakalarini oshirgan bo‘lsa, 2021-yildan boshlab har yili, bir hafta davomida, 36 soatlik kredit-modul tizimida malakalarini oshiradigan bo‘ldi.

Axborotlar eksponenta qonunlari asosida kirib kelayotgan bir davrda, har yilgi uzluksiz malaka oshirish tizimining joriy etilishi, o‘qituvchilar ta’lim-tarbiyaning jahonda ro‘y berayotgan yangiliklaridan vaqtida habardor bo‘lib, ularni kasbiy faoliyatlariga qo‘llash imkoniyatini bermoqda.

O‘qituvchilarga oily o‘quv yurtlari huzurida tashkil etilgan malaka oshirish hududiy markazlarida, mustaqil malaka oshirish hududiy markazlarida, xususiy malaka oshirish markazlarida va onlayn o‘qish turlaridan ixtiyoriy bittasini erkin tanlab malaka oshirish imtiyozi berilgan.

Oflayn tarzda, bir hafta davomida, 36 soat o‘qigan tinglovchilar, 18 kredit to‘plab, yillik malaka oshirish talabini bajargan hisoblanadi va test topshirishmaydi.

Ishdan ajralmagan holda, onlayn shaklda malaka oshirgan tinglovchilar test topshirishlari va kamida 18 kredit to‘plashlari shart.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish sharoitida malaka oshirish differensial (tabaqalashtirilgan) dasturlar asosda amalga oshiriladi. Bunda o‘qituvchilarning 1)malaka dajasi, 2)bilimi, 3)ilmiy–pedagogik salohiyati, 4)psixologik tayyorgarligi, 5)ish tajribasi e‘tiborga olinadi.

Endilikda “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasiga kirgan tinglovchilarning, taqdim etilgan testdan olgan natijalariga ko‘ra, ularning individuui kasbiy revojanish trayektoriyasi tuziladi.

Trayektoriya lotincha “trajectus” so‘zidan olingan bo‘lib “jilish”, “siljish”, “surilish” ma’nolarini anglatadi. Bundan ko‘rinadiki, izning uzluksizligi ta’minlangan bo‘lishi zarur. Masalan, bo‘rining qorda qoldirgan izi trayektoriya bo‘lmaydi.

Tinglovchilarning elektron portfoliyasi (yig‘ma jildi) shakllantiriladi. Unda, 1) kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, 2) natijalari (18 kridet), 3) o‘rganilgan modullar ro‘yxati bo‘ladi.

Trayektoriya o‘zaro bog‘liq uchta komponentlardan iborat: mazmunga doir, korreksion-tahliliy, tashkiliy.

Mazmunga doir: tayanch (invariant) hamda variativ qismlardan, tinglovchining individual ta'lim dasturi shakllantiriladi.

Korreksion-tahliliy: tashxis, faoliyatning doimiy tahlili, refleksiya, korreksiya ilmiy-metodik kuzatuv.

Tashkiliy: o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, texnologiyalari.

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini tuzish algoritmi quyidagi olti ketma-ketlikdan iborat: tashxis - maqsadni aniqlash – mazmuni shakllantirish – yo'nalishni belgilash – amalga oshirish –tahlil va reflektiv baholash.

Pedagogning individuai kasbiy revojlantirish trayektoriyasini grafik ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:


1) grafikdagi AB to'g'ri chiziq "Davlat malaka talabi" bilan "Pedagog malaka darajasi"ning vaqt nuqtai nazaridan bir muddatda ro'yobga chiqishi (amaliy jihatdan mumkin bo'lmagan) xodisani ifodalaydi;

2) AC egri chiziq "Davlat malaka talabi" bilan "Pedagog malaka darajasi"ning mutanosib, uyg'unligini ifodalaydi;

Bunda o'qituvchi davlat malaka talabini bajarish maqsadida o'zining ustida uzluksiz ishlaydi.

3) AD to'g'ri chiziq "Davlat malaka talabi" ning pedagog tamonidan bajarilmasligini ifodalaydi.

**"Uzluksiz kasbiy rivojlanish trayektoriyasi grafiqi"**  
(lotincha: "trajectus" – siljish, jilish, surilish)





Uzluksiz kasbiy revojlantirishni Eylar aylanalari yordamida ham tushuntirish mumkin.

Leonard Eylarning shogirdlari “Ustoz siz bilmagan bilim ham bormi?”- degan savollariga aylanalarni vositasida javob bergan.

1) bitta kichkina aylana chizib, bu aylana ichidagi nuqtalar sizlar biladigan bilimlar, aylana ustida yotgan nuqtalar sizlar bilmaydigan bilimlar bo‘lsin”

2) ikkinchi katta aylana chizib, bu aylana ichidagi nuqtalar mening biladigan bilimlarim, aylana ustida yotgan nuqtalar mening bilmaydigan bilimlarim bo‘lsin”- deb, taqqoslanglarchi kimning bilmaydiganlari ko‘p ekan savolini berdi.


Uchinchi konsentrik aylanalarni kasbiy revojlantirishning uzluksiz jarayon ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Ushbu ma’lumotdan, ma’lumki, bilimlarimiz qanchalik ortib borsa, bilmaydiganlarimiz ham shuncha ko‘payib borar ekan.

Uchinchi konsentrik

### EYLER AYLANALARI

- 1) Iqro
- 2) beshikdan to qabrgacha ilm izla
- 3) dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay



Xulosa qilib aytganga, mamlakatimiz ta’lim sohasiga uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining joriy etilishi ijobiy xodisa bo‘lib, maktab ta’limining sifati va natijadorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №25-son qarori.

3. A.A. Ibragimov. Pedagogning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. - 80 bet.

4. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Main\\_Page](https://en.wikipedia.org/wiki/Main_Page)

6. <https://uz.yourchildsprogress.com/lifetime-learning-tax-credit-3192933-585>